



Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 29-avgust, № 180 (8523)

Seshanba Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MAKTABLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28 avgust kuni maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi o'rnini ko'paytirish va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

"Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi", degan ezgu g'oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratildi.

O'qituvchi va murabbiylarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'tgan davrda muallimlarning oylik ish haqi o'rtacha 2,5 baravar oshdi.

Jumladan, chet tili, axborot texnologiyalari, matematika, kimyo, biologiya bo'yicha milliy va xalqaro sertifikat bor o'qituvchilarga ustama, chekka hududga borib ishlagan muallimlarga alohida to'lov joriy etildi. Natijada 6 million so'mdan 10 million so'mgacha maosh oladigan o'qituvchilar soni 23 mingga yetdi, 10 million so'mdan yuqori oylik oluvchilar 1 mingdan oshdi.

Maktablar yuklamasini kamaytirish maqsadida 700 ming o'quvchi o'rni yaratildi. Bu — avvalgi yillardagiga nisbatan 15 baravar ko'p. Oliy ta'limda ham qamrov 4 baravar oshirilib, yoshlar uchun imkoniyatlar kengaytirildi.

Shu bilan birga, maktab ta'limi sohasida dolzarb masalalar hali ko'p. Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda 11 ta, yuqori sinflarda 16 ta fan o'tiladi. Lekin o'quvchilar aniq bir yo'nalishda chuqur bilimga ega bo'lmay, maktabni bitiriyapti.

O'tgan yili 220 ming muallimdan 86 ming nafari yoki 37 foizining bilim va ko'nikmasi "qoniqarsiz" baholangan. Bu hol, ayniqsa, hozir talab yuqori bo'lgan informatika, ingliz tili, fizika, matematika va kimyo fani o'qituvchilarida bo'lgani tashvishli.

Oxirgi olti yarim yilda yurtimizda 320 ming xonadonli yangi uy-joylar barpo etilgan. Lekin ularga mos quvvatda maktablar qurilmagan. Yangi massiv va mahallalarda hozirgin o'zida 350 ming o'rinni maktablarga talab bor. Mavjud maktablar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ham vazifalar ko'p.

So'nggi yillarda 70 ming o'rinni 350 ta xususiy maktab tashkil etilgan. Ammo ko'plab viloyatlarda bu boradagi ishlar yetarli emas. Shu kabi tahlillarni qayd etar ekan, davlatimiz rahbari maktablarni ham mazmun, ham sharoit jihatidan yaxshilash bo'yicha yangi tashabbuslarni bildirdi.

Avvalo, ta'lim sifatini oshirish maqsadida

respublika bo'yicha 500 ta maktabda Prezident maktabi va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quv dasturi hamda baholash tizimi joriy etiladi. Bir yilda ularning ishi baholanib, yangi tizimni samarali qo'llagan o'qituvchilarga 40 foizgacha ustama beriladi. Kelgusi besh yilda ushbu tizim barcha maktablarda joriy qilinadi.

Bu yil maktablarda dars berish uchun xorijdan 500 nafar "til egalari" taklif etilgan. Keyingi yillarda ular yana ko'payadi. Shu bois hokimliklarga chet ellik o'qituvchilarning uy-joy masalasini hal qilish topshirildi.

Yuqori sinfda o'qitiladigan fanlar 16 tadan 11 taga qisqaradi. Bunda, 10 va 11-sinf o'quvchilariga "kimyo — biologiya", "matematika — fizika", "matematika — chet tili", "ona tili va adabiyot — chet tili" fanlari ularning tanlovi asosida chuqurlashtirib o'qitiladi.

Kasb-hunar egallash istagidagi o'quvchilarga esa maktabning o'zida tayyor mutaxassis bo'lib yetishish imkoniyati yaratiladi. Kelgusi o'quv yilidan kamida 1 mingga maktab shu tizimga o'tkaziladi.

Darslarning mazmuni ham o'zgaradi. 1-sinfidan kompyuter savodxonligi, yuqori sinflarda moliyaviy savodxonlik darslari joriy etiladi.

Eng muhimi, o'quv dasturlariga qo'shimcha yangi fanlarni kiritish taqdim etildi. Endi barcha yangi takliflar mavjud fanlarga integratsiya qilinib tayyorlanadi.

Prezident o'qituvchilarni malakasini oshirish va ularga munosib sharoit yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratib, muhim vazifalarni belgilab berdi.

Unga ko'ra, o'qituvchilarni ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va toifa berish tizimi to'liq o'zgartiriladi. Jumladan, o'qituvchilikka qabul qilish tanlov asosida bo'ladi. Ik bor kelgan namozdodlarga 1 yil o'qituvchi-stajyor bo'lib ishlash va yil yakuni bilan kasbiy sertifikat olish talabi qo'yiladi. Keyinchalik bu tizim barcha o'qituvchilar uchun bosqichma-bosqich joriy qilinadi.

O'qituvchilar malakasi ham tabaqalashgan holda oshiriladi. Ya'ni malaka oshirishdan oldin o'qituvchining bilimi "diagnostikadan o'tkaziladi" va natijasiga ko'ra individual kasbiy rivojlanish yo'nalishlari belgilanadi. Past natija olganlar bo'yicha o'zi o'qigan oliygohga reklamatsiya yuboriladi. Ya'ni bu pedagogik oliyohlar faoliyati uchun ham baho bo'ladi.

Shu bois hududiy malaka oshirish markazlari faoliyatini tanqidiy o'rganish, ularni ta'mirlash va

jihozlash bo'yicha topshiriq berildi.

Muallimlarga malaka toifasini berish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda pedagogning bilimi dastlabki imtihonda baholanib, 70 foizdan ko'p ball to'plaganlar ikkinchi bosqichga o'tadi. Ikkinchi bosqichda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashi, o'quvchilar bilan ishlash metodikasi va baholashdagi yondashuvlari tekshiriladi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ushbu tajribani o'qituvchilarning bilim darajasi past bo'lgan 20 ta tumanda sinovdan o'tkazish vazifasi qo'yildi.

Pedagogika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarini alohida yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha ko'rsatma berildi. Shuningdek, Toshkent va Chirchiqdagi Pedagogika universitetlarida mutaxassislar Prezident maktabi dasturi asosida tayyorlanadi. Bu muassasalar pedagogika yo'nalishidagi institutlar uchun "tayanch oliygoh" bo'ladi.

Kelgusi o'quv yilidan kadrlar yetishmaydigan, og'ir maktablar oldindan tanlanib, ular uchun maqsadli davlat buyurtmasi joriy qilinadi.

Maktab ta'limida boshqaruv tizimi ham o'zgartiriladi. Endi direktorlikka nomzodlar faqat sertifikat bor va zaxiraga kiritilgan kadrlar orasidan tanlanadi va muddatli shartnoma asosida ishga olinadi. Direktorlar va ularning o'rinbosarlari har besh yilda bir marta sertifikatsiyadan o'tadi.

Sohadagi yana bir dolzarb masala — o'quvchi o'rni ko'paytirish. Kelgusi yilda Investisiya dasturi doirasida maktab qurilishiga 3 trillion so'm ajratilishi nazarda tutilgan. Buning hisobiga 150 ming yangi o'quvchi o'rni yaratiladi.

Kam quvvatda ishlayotgan 61 ta kollej binosida maktablar tashkil qilinadi. Xususiy sheriklik asosida 50 ta maktab quriladi.

Xususiy sektorga qo'shimcha sharoitlar yaratish orqali yiliga kamida 25 ming o'quvchi o'rni ochiladi. Buning uchun tadbirkorlarga xususiy maktab tashkil qilishga kreditning 7 foiz qismi byudjetdan qoplab beriladi. Yangi maktab qurish uchun maydonlari maqsadli auksionga chiqariladi.

Umuman, bu ishlar orqali kelgusi yilning o'zida 250 ming yoki o'tgan yilga nisbatan 2 karra ko'p o'quvchi o'rni yaratilishi ta'kidlanadi. Mutasaddirlarga ushbu chora-tadbirlarni moliyalashtirish, maktablar qurish va jihozlash, muassasalarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash

bo'yicha topshiriqlar berildi.

Bitiruvchilarning bandligi masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Bu yil 387 ming nafar o'quvchi maktabni tamomlagan. Shundan 138 mingtasi oliy ta'limga o'qishga kirgan.

Davlatimiz rahbari qolgan bitiruvchilarni professional ta'lim bilan qamrab olish, yoshlarni kam xarajat qilib, ko'p daromad oladigan zamonaviy kasblarga o'rgatish muhimligini ta'kidladi. O'quvchilar bilan manzilli ishlash, bunda hokim, maktab direktori va ota-onalarning mas'uliyatini aniq belgilash vazifasi qo'yildi.

Ma'lumki, bundan uch yil oldin 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga yod, vitaminlar va gijjaga qarshi dorilar tarqatish amaliyoti joriy qilingan edi. Natijada bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan qalqonsimon bez kasalliklari kamaymoqda. Shu bois o'quvchilarga yod preparatlarini bepul tarqatishni davom ettirish, aholi orasida yod iste'molining foydali xususiyatlarini keng targ'ib qilish zarurigi aytiladi.

Yig'ilishda Prezident barcha o'qituvchilar, maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlariga murojaat qildi.

— Aziz ustozlar, maktab ta'limi sohasidagi islohotlarimizni amalga oshirishda men sizlarni o'zimging eng yaqin yordamchim, deb bilaman. Maktab ta'limini yanada yaxshilash bo'yicha qabul qilyotgan chora-tadbirlarimizning pirovard natijasi avvalo sizlarga, sizlarning fidokorona mehnatingizga bog'liq.

Men sizlarning timsolingizda o'z hayotini dunyodagi eng ulug' va oliyanob ishga — yangi avlod tarbiyasiga bag'ishlagan, o'z kasbiga sodiq va fidoyi insonlarni ko'raman. Bugun sizlar ta'lim-tarbiya berayotgan, qalbini, ongini ezigulik bilan to'ldirayotgan millionlab farzandlarimiz erdagi Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lib bizning safimizga kiradi. Vatanimiz, xalqimiz sizlarning bunday oliyanob xizmatlarini hech qachon unutmaydi. O'qituvchilik kasbini e'zozlash, uning mehnatini qadrlash bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda o'qituvchi maqomini mustahkamlab qo'ydik. Kelgusida shu asosda, albatta, ko'p ishlarni amalga oshiramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda belgilangan vazifalar yuzasidan vazirlar, hokimlar va boshqa mas'ullar axborot berdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI A.SAKSANOVNI "MEHNAT SHUHRATI" ORDINI BILAN MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida o'zining tashabbuskorligi, bilim va tajribasini yaqqol namoyon etib, tadbirkorlik sohasida ko'plab istiqbolli loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelayotgani, ijtimoiy masalalarni hal etishda jonbozlik ko'rsatayotgani, xususan, mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish ishlaridagi katta xizmatlari, yoshlarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, aholi farovonligini yuksaltirish borasida alohida ibrat va namuna bo'layotgani, shuningdek, jamiyatda o'zaro ko'mak, saxovat va mehr-oqibatni kuchaytirishga qaratilgan ezgu harakatlardagi faol ishtiroki uchun Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi "Saksanov" mas'uliyati cheklangan jamiyati ijrochi direktori Saksanov Abdikarim Yuldashovich "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV
Toshkent shohri, 2023-yil 28 avgust

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI M.SULTANOVAGA "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATGAN XALQ TA'LIMI XODIMI" FAXRIY UNVONINI BERISH TO'G'RSIDA

Xalq ta'limi sohasidagi ko'p yillik samarali mehnati, mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, o'quv-tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ishlariga qo'shgan munosib hisssasi, yosh avlodning bilim va salohiyatini yuksaltirish, ular qalbidagi ilm-fan va bilimga intilish, mehnatsevarlik va bag'rikenglik ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash, farzandlarimizni ezgu g'oyalarga, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 9-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internati direktori Sultanova Mamurajon Ramxonovna "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi" faxriy unvoni berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV
Toshkent shohri, 2023-yil 28 avgust

Biz va jahon

O'ZBEKISTON — JADAL SUR'ATLARGA TARAQQIY ETAYOTGAN MAMLUKAT

Qabulda BMTning yuqori martabali rasmiylari, xorijiy davlatlarning doimiy vakillari, Nyu-York shahri ma'muriyati va Senati a'zolari, nufuzli jamoat arboblari, ishbiarmonlar, ekspertlar hamda AQSHda istiqomat qilayotgan vatandoshlar ishtirok etdi.

Qabul marosimi O'zbekiston davlat madhiyasi ijrosi bilan boshlandi. Tadbir doirasida mehmonlar e'tiboriga mamlakatimizning boy tarixiy merosi, ko'p millatli xalqimizning bebaho madaniyati, qadimiy an'analari hamda yurtimizning istiqbol yillarida erishgan ulkan yutuqlari va zamonaviy taraqqiyoti-ga oid yuqori sifatli video-

lavhalar namoyish etildi. Shuningdek, ishtirokchilar e'tiboriga o'zbek milliy kuy-qo'shiqlari va raqslaridan iborat madaniy dastur taqdim qilindi.

O'zbekistonning BMTdagi doimiy vakili Ulug'bek Lapasov barcha vatandoshlarimizni mustaqillik bayrami bilan samimiy muborakkob etdi.



TARIXIY YUTUQLAR BILAN YANGI MUVAFFAQIYATLARGA ERISHAMIZ

Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yuy Szyun mamlakatimiz istiqbolining 32 yilligi munosabati bilan xalqimizga o'z tabrigini yo'lladi.

Dil so'zi

— 32 yil muqaddam O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilib, o'z tarixida yangicha shart-sharoitlarga muvofiq, o'z taraqqiyot yo'lini tanladi, mamlakat yangi qiyofaga ega bo'ldi. Bugungi kunda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakat xalqi yangi O'zbekistonni qurishdek buyuk maqsad sari ildam qadam tashlamog'ida.

Turli sohalarda islohotlar chuqurlashyapti, iqtisodiyot jad-al o'smoqda, jamiyat qurilishi oldinga siljimoqda, odamlarning turmush darajasi yaxshilanib, xalqaro maqomi sezilarli oshmoqda. Prezident Shavkat

Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas".

Qadimiy tamaddunga ega bo'lgan O'zbekiston tobora yangi hayotiy kuchga to'lib boryapti, mehnatsevar va donishmand o'zbekistonliklar milliy taraqqiyot va yuksalishning buyuk manzarasini o'z qo'llari bilan bunyod etishmoqda. Biz samimiy qo'shni sifatida bundan g'oyat xursandmiz.

Mustaqillikka erishganidan beri O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar barqaror rivoj topmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari orasida O'zbekiston XXR bilan



birinchi bo'lib rasmiy diplomatik munosabatlarni o'rnatdi. So'nggi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar o'sishini yuqori sur'atlari saqlanib qolyapti, mustahkam do'stlik, umumiy manfaatlar va birgalikda farovonlikka erishishga asoslangan, yangi davrning har tomonlama strategik sherikligi tashkil etildi.



Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar

SIRDARYO VILOYATI YUQORI SALOHİYATLI INDUSTRIAL HUDUDGA AYLANMOQDA

Har qanday marra, maqsadga muvaffaqiyatli yetishda to'g'ri yo'lni tanlash muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda, mamlakatimizni rivojlantirishning yaqin va uzoq kelajakka mo'ljallangan taraqqiyot yo'li puxta o'ylangan va aniq rejalariga asoslanganini qisqacha davrda har jihatdan ravnaq topayotgan Sirdaryo viloyati misolida ham ko'rish mumkin.

— So'nggi yillarda viloyatimizda misli ko'rilgan iqtisodiy, ijtimoiy o'sish kuzatildi, — deydi xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputati Pokiza Ahmadjonova. — Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, uzoq yillik agrar hudud degan nom o'rni qayta salohiyatli industrial viloyat maqomiga ega bo'ldi. Ya'ni bir vaqtlar Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi, eski texnologiyalarda ishlaydigan paxta zavodlari va boshqa barmoq bilan sanarli kor-

onalari bo'lgan viloyatda bugun turli ishlab chiqarish yo'nalishlaridagi ko'plab sanoat ob'ektlari faoliyat yuritmoqda.

Binobarin, so'nggi olti yarim yilda viloyatga 3 milliard dollar xususiy investitsiyalar jalb qilinib, 7 mingga yuqori salohiyatli industrial viloyat maqomiga ega bo'ldi. Ya'ni bir vaqtlar Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi, eski texnologiyalarda ishlaydigan paxta zavodlari va boshqa barmoq bilan sanarli kor-



Amerika — O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin LEMM:

XORIJIIY INVESTORLAR UCHUN IMTIYOZLAR — AMERIKA KOMPANIYALARI UCHUN YAXSHI IMKONIYAT

AQSHning yetakchi "PR Newswire" yangiliklar onlayn platformasida Amerika — O'zbekiston savdo palatasi (AUCC) raisi Kerolin Lemming "Kelajak bugundan boshlanadi: AQSH va O'zbekiston biznes hamkorligi rivojlanishida AUCC" sarlavhali tahliliy maqolasi joylashtirildi.

"Joriy yilda AUCC o'zining 30 yilligini nishonlamoqda, — deb yozgan muallif. — Bugun Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik har doimgidanda muhim bo'lib qolmoqda. AUCC AQSH va

MDHdagi eng qadimgi va nufuzli savdo uyushmasi bo'lib, Amerikaning yirik brendlarini ifodalovchi platforma sifatida Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritaypti.



Eng ulug', eng aziz ne'mat — Vatanimiz istiqloli, bugungi ozod, tinch va farovon hayot uchun kurashib, aziz jonlarini fido etgan, sobiq ittifoq davrida qatag'on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o'rganish hamda targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 8-oktyabrda "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishiga muvofiq, ko'p millatli xalqimizning fidoyi

farzandlari, ma'rifatparvar ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan bog'liq haqiqatni to'la yuzaga chiqarish, ularga nisbatan tarixiy adolatni tiklashga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla

Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'ipon, Abdulla Qodiriy kabi ulug' ma'rifatparvar ajdodlarimiz xotirasiga bag'ishlangan muhtasham haykallar, muzeylar bunyod etildi, ijod maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi. Siyosiy qatag'on yillarida nohaq qurbon bo'lgan yurtodoshlarimizning nomlarini aniqlash, ularning qoldirgan merosini o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan

ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy va hujjatli asarlar yaratilmoqda.

Jadidchilik harakatining tom ma'nodagi rahnamolari — Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovning Vatanimizning yuksak "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlanishi ma'naviy hayotimizdagi ulug' voqealardan biri bo'ldi.



Amerika — O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin LEMM:

XORIJIY INVESTORLAR UCHUN IMTIYOZLAR —AMERIKA KOMPANIYALARI UCHUN YAXSHI IMKONIYAT



Palata a'zolari orasida O'zbekistonga birinчилardan bo'lib sarmoya kiritgan, Markaziy Osiyo bozorlari uchun muvaffaqiyatli ishlab chiqarishni joriy qilish orqali mamlakat sarmoya joxbadorligiga hissa qo'shgan korxonalar bor. "White & Case LLP", "Coca-Cola", "CNH Industrial", "GM" va boshqa kompaniyalar shular jumlasidandir.

Uning qayd etishicha, AUCC 1993 yildan beri Amerika biznesining O'zbekiston va Qo'shma Shtatlardagi sarmoyaviy hamda savdo manfaatlarini qat'iy himoya qilib kelmoqda. Tashkilot o'tgan yillar davomida O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi chuqur sarmoyaviy va savdo aloqalarini yanada rivojlantirishga hissa qo'shdi va biznes rahnaqi uchun zarur bo'lgan muhim masalalarda har ikki davlat hukumati bilan hamkorlikni mustahkamlashga erishdi.

"AUCC AQSHda joylashgan guruh sifatida O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan izchil o'zgarish va islohotlarni alohida e'tibor bilan kuzatib boryapti. Boshqa ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi islohotlar muammolar va imkoniyatlar bilan hamohang rivojlanmoqda. Qayd etish kerakki, 2016-yilda Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi mamlakat uchun imkoniyatlar eshigini ochdi", deya ta'kidlanadi nashrda.

Palata raisi joriy yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Konstitusiyasiga o'zgartishlar kiritish bo'yicha referendum natijalariga alohida to'xtalib o'tgan. Qayd etilganidek, referendum natijalari O'zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida mustahkamlanishiga yordam berdi. Konstitusiyaviy islohot 90 foizdan ortiq aholi tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"Keng ko'lami o'zgarishlar

O'zbekistonning o'sib borayotgan iqtisodiyotining rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlamogda. Ular ochiqlik, shaffoflikni hamda samaradorlikni oshirish va korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar orqali yanada qulay biznes va investitsiya muhitini ta'minlashga yordam berdi. Bosh qomusga kiritilgan o'zgartishlar, shuningdek, tadbirkorlar huquqlari va xususiy mulk daxlsizligini yanada mustahkamlashga hissa qo'shadi. Yana bir muhim iqtisodiy o'zgarish butun O'zbekiston bo'ylab tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va moliyaviy resurslarning erkin harakatlanishi kafolati bo'ldi", deya qayd etilgan elektron platformada.

Maqolada, shuningdek, joriy yil 9 iyul kuni bo'lib o'tgan muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari ham qalarga olingan. "Ushbu saylovda amaldagi davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev saylovchilar ovozinin 87,05 foizini to'plab, mullaq g'alabaga erishdi, — deyiladi manbada. — Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bundan qariyb yetti yil oldin lavozimga kirishgan Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakat ichida va mintaqada barqarorlik, xavfsizlik va iqtisodiy imkoniyatlar davri sari yetaklovchi, uzoqni ko'ra oladigan davlat rahbari bo'la oldi".

Muallifning ta'kidlashicha, xalqaro raqobat kuchayib borayotgan bir paytda AQSH investorlari, eksportchilari, ishlab chiqaruvchilari va ishbilarmon doiralari uchun O'zbekiston hukumati bilan aloqalarni yanada chuqurlashtirish juda muhim. Chunki O'zbekistondagi iqtisodiy va sanoat o'zgarishlari, xorijiy investorlar uchun imtiyozlar — Amerika kompaniyalari uchun yaxshi yangilik va imkoniyat, — deyiladi materialda.

"Biz AQSHning barcha kompaniyalarini unda ishtirok etishga chorlaymiz. Yillar sayin AQSH va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik yanada mustahkam, bardoshli va innovasion bo'lib bormoqda. Bu Amerika va O'zbekiston xalqiga katta foyda keltirmoqda hamda biz umumiy manfaatlar va maqsadlarni ko'zlagan holda strategik ittifoq va do'stlik rishmalarini mustahkamlashda davom etishimiz kerak", deb yozgan Kerolin Lemm maqola xulosasida.

"Dunyo" AA.
Vashington

O'ZBEKISTON — JADAL SUR'ATLARDA TARAQQIY ETAYOTGAN MAMLAKAT

Doimiy vakil, shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lami jadal demokratik islohotlar va ulkan bunyodkorlik ishlari to'g'risida batafsil ma'lumot berdi. Ushbu o'zgarishlar Vatanimiz taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergani, xususan, ko'p millatli xalqimiz hayoti farovonligini oshirish, iqtisodiyotimizni yuksaltirish, tinchlik-osoyish-talimimizni mustahkamlash, davlatimizning xalqaro maydondagi nufuzi va obro'-e'tibori tobora yuksalishiga mustahkam zamin bo'lib xizmat qilayotgani alohida ta'kidlandi. Barcha islohotlar zahirida inson haq-huquqlari va erkinliklari, qadr-qimmatlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash kabi ezuq maqsad muajassamligi alohida qayd etildi.

O'zbekistonning so'nggi olti yilda BMT bilan keng qamrovi hamkorligi jadallashganiga e'tibor qaratilib, mamlakatimiz jahon hamjamiyatining ishonchli sub'yekti sifatida xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik, barqarorlik va farovonlikka ulkan hissa qo'shayotganligi ta'kidlandi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga to'liq mos kelishi urg'ulandi.

Tabdirning faxriy mehmoni,

BMT Bosh Assambleyasining Raisi Chaba Kyoryoshi davlatimiz rahbari, ko'p millatli xalqimiz va barcha vatanparvarlarimizni O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz ikki yilligi bilan samimiy muborakbod etarkan, mamlakatimizning boy tarixiy merosi hamda bugungi kundagi jadal taraqqiyotiga yuksak baho berib, O'zbekistonda ko'plab davlatlar uchun namuna sifatida ko'rsatdi.

"O'zbekiston qadimiy o'lka, bu ko'hna zaminda ming yillar muqaddam taraqqiyot, ilm-fan va san'at hamohang rivojlangan. Bu zamanga tashrif buyuring va bunga o'zingiz guvoh bo'ling. Bir necha yil avval bunga o'zim shaxsan guvoh bo'lganman. Samarqand shahridagi tarixiy obidalar, buyuk allomalar, xususan, Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosidan olgan ulkan taassurotlarim bir umrga xotiramda muhrlanib qoladi. Bugun O'zbekiston yosh, navqiron, ulkan reja va maqsadlarga ega, kuch-g'ayratga to'la jadal sur'atlarda taraqqiy etayotgan davlatdir. O'zbekiston ko'p to-

monlama hamkorlikni ilgari surib, BMT ustavining bosh maqsad va vazifalariga to'laigicha rioya qilayotgan mamlakat hisoblanadi. O'zbekistonning barqaror taraqqiyotga qo'shayotgan hissasi uchun katta rahmat aytishimiz kerak. Bu — biz uchun haqiqiy namuna. Men, shuningdek, O'zbekistonning diniy bag'rikenglik g'oyalari ilgari surish bo'yicha faolligini alohida mamnuvniyat bilan ta'kidlamogchiman. Ushbu yo'nalishdagi ezuq faoliyat, ayniqsa, bugungi dunyoda o'ta dolzarb ahamiyatga ega", dedi BMT Bosh Assambleyasi Raisi.

Chaba Kyoryoshi, shuningdek, barcha davlatlar va o'z nomidan O'zbekistonga sentyabr oyida bo'lib o'tadigan BMT Bosh Assambleyasining silga qarshi kurashish yuzasidan oliy darajadagi yig'ilishining yakuniy hujjati — Siyosiy deklaratsiya loyihasini ishlab chiqish bo'yicha hukumatlararo muzokaralarni Polsha tomoni bilan birgalikda samarali muvofiqlashtirgani uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.



TARIXIY YUTUQLAR BILAN YANGI MUVAFFAQIYATLARGA ERISHAMIZ

aqada tinchlikni, barqarorlik hamda taraqqiyotni ta'minlash uchun ijobiy energiya taqdim etdi.

Hozirgi vaqtda Xitoy ham, O'zbekiston ham milliy taraqqiyotning hal qiluvchi bosqichida turibdi. Xitoy millatning yuksalishi uchun modernizatsiyasining xitoycha uslubli yo'lidan borib, yuqori sifatli rivojlanish va oliy darajadagi ochiqlikni amalga oshirmoqda. Iqtisodiy taraqqiyot sezilarli barqarorlik va ulkan salohiyatni namoyish etdi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti ham strategik imkoniyatlarining muhim davrini kechiryapti. Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy she'riyatida aytilganidek, "Men xalqimni baxtli va farovon ko'rishni istayman".

Taraqqiyotga hissa qo'shish va odamlarga foyda keltirish — bu bizning umumiy maqsadimiz

va umrboqiy intilishimiz. Xitoy va O'zbekiston o'xshash maqsad va intilishlarga ega, har doim yaxshi qo'shnilar, samimiy do'stlar va ishonchli sheriklar bo'lib qolishiga, birgalikda milliy taraqqiyot va rivojlanish yo'lida yorug' kelajakni qurishga tayyor ekanliklariga ishonaman.

Biz Prezident Shavkat Mirziyoyevning kuchli rahbarligi ostida O'zbekiston, albatta, farovonlikka va katta yutuqlarga, xalqi esa baxt va iqbolga erishishiga tilakdoshmiz!

So'zim yakunida Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi nomidan O'zbekiston xalqini davlat mustaqilligi kuni bilan chin dildan tabriklayman!

Abduvali SOYIBNAZAROV
("Xalq so'zi") yozib oldi.

Avvalroq, O'zbekiston va Polsha Bosh Assambleya Raisi tomonidan BMTning Silga qarshi kurashish bo'yicha oliy darajadagi yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi rezolyutsiya va uning yakuniy hujjatini ishlab chiqish yuzasidan hukumatlararo muzokaralarni



ing muvofiqlashtiruvchilari etib tayinlangan edi. Mazkur jarayon salkam bir yil davom etdi va yaqin kunlarda nihoyasiga yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, tadbir davomida BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning yuqori martabali vakillari, nufuzli siyosat va jamoat namoyandalari hamda vatanparvarlar mamlakatimiz rahbariyati va ko'p millatli xalqimizga samimiy tabriklarini yo'lladi.

"Bugun BMT qarorgohida katta shodiyona bo'lib o'tdi. Unda dunyoning ko'plab davlatlari vakillari, o'zbekistonlik vatanparvarlar faol qatnashdi. Yaqinda jonajon Vatanimiz — O'zbekiston

mustaqilligiga o'ttiz ikki yil to'ladi. Ushbu qutlug' kunlarga o'zbek xalqi munosib ravishda yetib keldi. Bir oy avval O'zbekistonda bo'ldim. Safar davomida Toshkent, Samarqand va boshqa hududlarda olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari va




katta o'zgarishlarning shaxsan guvohiga aylandim. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan maqsad va vazifalar uzoq istiqbolni o'ylagan holda samarali amalga oshirilmoqda. Men O'zbekiston rahbariyati va xalqiga qalbidagi eng ezuq niyatlarini tilayman. O'zbekiston osmoni doimo musaffo bo'lsin, o'zbek xalqini tinchlik-osoyish-talim va xotirjamlik aslo tark etmasin. O'zbekiston mustaqilligi abadiy bo'lsin", dedi AQSH va Kanada Buxoro yahudiyolari kongressi rahbari Boris Kandov.

"Dunyo" AA.
Nyu-York

Davlat xizmatlari markazi: SIFAT VA QAMROV OSHMOQDA

Namangan shahridagi Davlat xizmatlari markazida fuqarolarga talab eng yuqori bo'lgan 300 dan ortiq xizmatlar taklif etilmoqda.

Xizmat



Ayni jarayonda "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonidan kelib chiqib alohida toifa (yo'lak)larga ajratgan holda xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Uch turda — oson, o'rta va murakkab toifaga asoslangan bu amaliyot davlat Tashkent shahrining Olmazor hamda Chilonzor tumanlarida tajribadan o'tkazilgan edi.

— Bu yangilik bizda ham tezda samara berdi, — deydi Namangan shahar Davlat xizmatlari markazi direktori Nodirbek Isomidinov. — Buni birgina ku-

tish va xizmat ko'rsatish vaqti o'rtacha ikki baravarga qisqarganida ham ko'rish mumkin.

Shuningdek, ushbu amaliyot xodimlarning malaka va tajribasi qay darajada ekanligini aniqlash, qaysi yo'nalishda muammoga duch kelinayotganligiga e'tibor qaratib, malakasini oshirib borish, yangi ishga qabul qilingan xodimlarni "oson" davlat xizmatlari toifasida xizmat ko'rsatishdan boshlab, "murakkab" toifasigacha bosqichma-bosqich o'tkazish choralarini ko'rish, "Ustoz — shogird" tamoyillari asosida faoliyat yuritish tizimini mustahkamlash imkonini beradi.

Qudratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so'zi").

150 O'RINLI MEHMONXONA

Andijon shahrida mustaqilligimizning 32 yillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilgan "Premier hotel And" mehmonxonasi mijozlarga xizmat ko'rsata boshladi. 15 mlrd. so'mlik loyiha asosida qad rostlagan mazkur majmua 6 qavatdan iborat bo'lib, bir paytning o'zida 150 kishini qabul qilish imkoniyatiga ega.

Qulaylik

— Andijonga tez-tez kelib turaman, — deydi poytaxtlik tadbirkor Ruslan Nizomiddinov. — Shahar juda gavjum va mehmonxonalar o'rtasida erkin raqobat bor. Bu mijozlar uchun eng qulay va shinam mehmonxonani tanlash imkonini beradi. "Premier hotel And" esa har tomonlama mijozlar talabiga mos keladi. Viloyat markazining aholi

eng zich hududida joylashgan mazkur mehmonxonada 69 ta nonadan iborat bo'lib, majlislar, bayram tadbirlari va boshqa marosimlarni tashkil etish uchun qulay maydonlar, avtoturargoh, savdo majmuasi, cho'milish havzasi hamda saunaga ega.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").

SIRDARYO VILOYATI YUQORI SALOHIYATLI INDUSTRIAL HUDUDGA AYLANMOQDA

Shuning barobarida viloyatda sanoat mahsulotlari hajmi 1,3 barobar ko'payib, 12 trillion so'mdan oshdi. O'z o'rnida uning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 25 foizga yetdi. Umuman, yalpi hududiy mahsulot 1,5 barobar ko'payib, 18 trillion so'mga, aholi jon boshiga esa 20 million so'mga yetdi.

— Keyingi yillarda yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy loyihalarni o'z vaqtida va muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida yangi-yangi energetika resurslari yaratish borasida viloyatimizda ulkan ishlar bajarildi, — deydi viloyat Kengashi deputati, Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi direktori Bahrom Sobirov. — Bu borada bir necha yangi quvvatlar ishga tushirildi. Bizning korxonamizda esa keng ko'lami modernizatsiya loyihasi amalga oshirildi. Natijada elektr ishlab chiqarishga sarflanadigan tabiiy gaz hajmi kamayib, samaradorlik sezilarli

darajada oshdi. Yana stansiyamiz yonida 1300 kilovatt quvvatga ega bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ham foydalanishga topshirildi. Shuni mamnuvniyat bilan aytamanki, korxonamiz yaqinida tez orada xorijlik hamkorlar bilan birgalikda bunyod etilayotgan 1500 megavatt quvvatga ega yana bir yirik elektr stansiyasi ishga tushiriladi va Shirin shahri tom ma'noda mamlakatimizning eng katta energetika markaziga aylanadi.

Ayni paytda viloyatda iqtisodiy o'sish bilan tengma-teng ravishda ijtimoiy sohada ham katta o'zgarishlar qilindi. Xususan, hududda ta'limning butunlay yangi shaklidagi Prezident maktabi, Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari ochildi. Ko'plab maktablar tubdan ta'mirlandi va yangilari qurildi. E'tiborlisi, bu borada kelgusi yetti yilga mo'ljallangan

rejalar yanada zalvarli. Jumladan, viloyatda 450 ta yangi bog'cha faoliyati yo'lga qo'yilib, qo'shimcha 15 mingta bola o'rni yaratilishi, 17 ta mahallada yangi maktablar barpo etilishi, 40 ta maktab rekonstruksiya qilinishi, barcha maktablar issiq va filtrlangan ichimlik suvi bilan ta'minlanishi belgilandi.

Albatta, har bir insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratish — ustuvor vazifa. Bu borada, ayniqsa, aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilayotgan katta e'tibor tahsinga loyiq. Buni birgina Guliston shahrida keyingi olti yarim yilda bir necha yangi turarjoy massivlari bunyod etilganida ham ko'rish mumkin. Kelgusi yetti yilda esa viloyatda 900 ta ko'p qavatli uy-joy barpo etish mo'ljallanmoqda. Shuningdek, mazkur yillar davomida 400 kilometr yo'l, 2,5 ming kilometr suv tarmog'i, 455 ta yuv inshooti quriladi. 4 ming kilometr elektr tarmoqlari va 1 mingta transformator yangilanadi. Umuman, kelgusi yetti yilda viloyatda mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga 10 trillion so'm yo'naltirilishi belgilangan.

Ma'lumki, mamlakatimizda ilk bor kafolatlangan paket asosida tibbiy xizmat ko'rsatish ishlari Sirdaryoda yo'lga qo'yildi. Ayni vaqtda mazkur loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilyapti. Xususan, Guliston tibbiyot klasterida "Tibbiyot shaharchasi" barpo etilib, viloyatdagi



6 ta shifoxonani bitta hududga joylashtirish bo'yicha belgilangan ishlar jadal davom ettirilyapti. Shu bilan birga, kelgusida aholiga yanada sifatli va samarali tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha aniq rejalar belgilab olingan. Jumladan, kelgusi yillarda viloyatning turli hududlarida 55 ta poliklinikani va shifokorlik, 15 ta tibbiyot punktlari tashkil etiladi. Oqoltin va Sirdaryo tumanlarida jarohatlar va yurak-qon shma kasalliklari tumanlararo qo'shma markazlari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Sardoba va Boyovutda tumanlararo perinatal markazlar ochildi. Viloyatdagi barcha tug'urruq komplekslari rekonstruksiya qilib, eng zamonaviy uskunalar bilan jihazlanadi.

Ta'kidlash lozimki, qisqa vaqtda agrar viloyatdan iqtisodiy salohiyati yuqori hududga aylangan Sirdaryo

viloyatida endilikda Xitoy tajribasi asosida iqtisodiyotga innovatsiya va zamonaviy texnologiyalar olib kirish ustuvor vazifaga aylandi. Unga ko'ra, xorijiy investitsiyalar hisobiga viloyatning deyarli barcha tumanlarida turli xil ixtisoslashuvga ega yangi ishlab chiqarish majmualari tashkil etiladi. Natijada kelgusi yetti yilda viloyat eksporti hajmi 5 karra oshirilib, 1 milliard 800 million dollarga yetkazilishi kutilmoqda. Aytish lozimki, bu juda yuksak va albatta, viloyatni yanada rivojlangan hududga olib chiqadigan marradir.

Sirdaryoda olib borilayotgan izchil va jadal harakatlari, voha ahlining taraqqiyotining ravon yo'lidan hamjihatlik bilan olg'a intilayotgani ushbu maqsadga yetishda muhim omil bo'ladi, albatta.

Ahmadali SHERNAZAROV
("Xalq so'zi").



Senat qo'mitasida

DAVLAT IJTIMOY BUYURTMALARIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI ISHTIROKI

Kecha Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, O'shlar parlament tomonidan mas'ul vazirlik va idoralarning yoshlar masalalariga oid davlat ijtimoiy buyurtmalarining nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan o'zlashtirilishiga bag'ishlangan uchrashuv tashkil etildi.

Mazkur muloqotdan maqsad davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, nodavlat notijorat tashkilotlari tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda davlat organlarining ijtimoiy buyurtmalarini amalga oshirishda ularning faol ishtirokini ta'minlashdan iborat.

Uchrashuvda senatorlar, ijtimoiy buyurtma taqdim etgan vazirlik va idoralari mas'ullari, O'shlar ittifoqi, nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari, Senat huzuridagi O'shlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Tadbirida Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi rahbari hamda fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi raisi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini tayyorlash, taqdim etish va amalga oshirish yuzasidan ma'lumot berildi.

Shuningdek, uchrashuv

davomida davlat organlari tomonidan 2024 yil uchun ishlab chiqilgan ijtimoiy buyurtmalar taqdimoti o'tkazildi. Xususan, O'shlar siyosati va sport, Madaniyat, Maktabgacha va maktab ta'limi, Adliya vazirliklari hamda Madaniy meros agentligining yoshlarga doir davlat ijtimoiy buyurtmalarini muhokama qilindi.

Muloqot jarayonida davlat ijtimoiy buyurtmalarida nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki yuzasidan savol-javob va muhokama tashkil etildi. NNTlar vakillarini qiziqitirgan savollarga vazirlik va idoralari mas'ullari hamda jamoat fondi vakillari tomonidan atroflicha javob berildi.

Muloqot yakunida Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, Senat huzuridagi O'shlar parlamenti hamda nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligiga doir ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

O'z navbatida, O'shlar parlamentining ijtimoiy loyiha va grantlarda ishtirok etish imkoniyatlari yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

“HUDUDGAZTA'MINOT” AJDA MUHOJIRLAR BILAN ISHLASH QAY DARAJADA?

Kuni kecha Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi majlisida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, aholi bilan uchrashuvlar va sayyor qabullar tashkil qilish, ko'tarilgan masala va muammolarni zudlik bilan hal etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan “Hududgazta'minot” aksiyadorlik jamiyati direktorining axboroti eshittildi.

Ta'kidlanishicha, 2023 yilning birinchi yarmida “Hududgazta'minot” AJga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali jismoniy va yuridik shaxslardan jami 25,7 mingta murojaat tushgan va ularning 22,4 mingtasi qanoatlantirilgan, 71 tasi rad etilgan.

Eng ko'p murojaatlar Samarqand, Toshkent, Qashqadaryo, Andijon, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahridan kelib tushgan.

Tizimda murojaatlar bilan ishlash holati borasida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha 98 ta tadbir o'tkazilgan hamda jamoatchilik vakillari oldida 47 marta hisobot berilgan. “Hududgazta'minot” AJ va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan tashkil etilgan shaxsiy qabullarda 7,2 ming, sayyor qabullarda 13,4 ming nafar jismoniy va

yuridik shaxs vakillari qabul qilingan.

Majlisda qo'mita a'zolari tomonidan murojaatlarga e'tiborsizlik bilan qarash, ularni chuqur o'rganmaslik va yuzaki yondashish oqibatida takroriy ariza va shikoyatlar soni o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 12 foiz ortganligi ta'kidlandi.

Shuningdek, murojaatlarda ko'tarilgan muammolarni ijobiy hal etish ko'rsatkichlari o'rganildi. “Hududgazta'minot” AJ va uning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlaridagi korxonalarida ushbu ko'rsatkich 4 — 18 foizgacha pasaygan.

Qo'mita a'zolari aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qator tadbirlar va tavsiyalarni bildirdi.

“Xalq so'zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

DOLZARB HUJJAT LOYIHALARINING MUFASSAL MUHOKAMASI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda jamiyatimizning turli sohalari isloh qilishga doir bir qator qonun loyihalari mufassal ko'rib chiqildi.

Jinoyatchilikka qarshi jazo choralarini kuchaytirilmoqda

Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyalarining qo'shma yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Deputatlar dastlab “O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi” qonun loyihasini muhokama qilishdi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohada raqamlashtirishning keng joriy etilayotgani ish samaradorligi oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq g'araz niyatli shaxslar bu jarayondan salbiy maqsadlarda foydalanib, yangi turdagi huquqbuzarliklar sonining ortishiga sababchi bo'lyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan internetda tovlamachilik, noqonuniy kriptoaktivlar aylanmasi va mayningi bilan shug'ullanilgan uchun jinoyi javobgarlik hamda mobil qurilmaning xalqaro o'ziga xos identifikatsiya kodini qonuniy ishlab chiqaruvchisining ruxsatisiz o'zgartirish, shuningdek, ushbu maqsadda maxsus dasturlar ishlab chiqish, o'tkazish yoki ularidan foydalanish uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmoqda.

Deputatlar kelgusida axborot texnologiyalari yordamida sodir qilingan jinoyatlarni fosh etish, qarshi kurashish hamda tergov jarayonida barcha kuch va vositani to'liq yo'naltirishga xizmat qilishini ta'kidlab, qonun loyihasini ma'qulladilar.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat — “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimi soddalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi bo'ldi.

Taklif etilayotgan hujjat loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, shuningdek, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini

himoya qilish to'g'risida”gi, “Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida”gi, “Xo'jalik shirkatlari to'g'risida”gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning aniq maqsad va chegaralarini belgilash, tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan yangi mahsulot va xizmat turlarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ularga nisbatan tartibga solish yukini kamaytirish yo'nalishida ko'rilayotgan choralar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokamalar davomida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'z takliflarini, fikr-mulohazalarini bildirdi. Uzoq davom etgan tortishuvlardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yangi normalar huquqbuzarliklarga chek qo'yadi

“Adolat” SDP fraksiyasining yig'ilishida, xususan, “O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi” qonun loyihasi qizg'in ko'rib chiqildi.

Hujjat loyihasiga O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodeksiga axborotni nooshkora tarzda to'plashga ixtisoslashtirilgan maxsus vositalarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, ishlab chiqarish, saqlash, o'tkazish va foydalanish qilmishlari uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlik choralarini belgilovchi normalar kiritilayotir.

Shuningdek, bank kartasi yoki boshqa to'lov kartalarini qalbakilashtirish yoxud ularidan foydalanish holatlariga hamda bank kartasi yoki boshqa to'lov kartalarini, shuningdek, ichiga mikroshema o'rnatilgan identifikatsiyalash modullarini qalbakilashtirishga mo'ljallangan maxsus texnika vositalarini olib kirish, tayyorlash,

Senator va hayot

ELEKTR TARMOG'I TORTILMOQDA

Ma'lumki, oxirgi yillarda Oliy Majlis Senati faoliyati tubdan yangilandi. Natijada ushbu tuzilma mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Bugun qay bir hudud yoki sohada olib borilayotgan yangilanishlarni kuzatmang, albatta, senatorlarimiz faolligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, aholi bilan o'tkazib kelinayotgan uchrashuvlar jarayonida ko'plab muammoli masalalar aniqlanib, ularni bartaraf etish choralarini ko'rilayotgani diqqatga sazovor.

Xususan, Oliy Majlis Senati a'zosi Abdug'ani Sanginovi joriy yilning 2 aprel kuni Surxondaryo

viloyatining Sariosiyo tumanida faollar va aholi bilan uchrashuv o'tkazgan va ana shu muloqot chog'ida qator muammolar o'rtaga tashlangan edi. Jumladan, tuman markazidan 70 km. uzoqlikda joylashgan tog'li Vochax qishlog'i aholisidan elektr energiyasi tarmog'i yo'qligi yuzasidan murojaat bo'lgandi.

O'tgan vaqt mobaynida ushbu murojaat atrofiga o'rganildi. Ma'lum bo'lishicha, dengiz sathidan 1000 metr balandda

joylashgan mazkur qishloqqa elektr energiyasi tarmog'i tortilmagan. Bu esa qishloqdagi 21 xonadonda istiqomat qiluvchi 120 nafar aholi uchun muayyan qiynchiliklar tug'dirardi.

Shunday qilib, senator faqatgina havo orqali yoki maxsus transport vositasida borish mumkin bo'lgan qishloqqa elektr yetkazish tashabbusi bilan chiqdi. Buning uchun temir ustunlar, transformator hamda maxsus texnikalar va mutaxassislar ajratilgan bo'lib, ayni damda ish jadallik bilan olib borilmoqda.

“Xalq so'zi”.

Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!

ISTIQLOL BERGAN SAODAT

Bugun ko'p millatli xalqimiz jonajon Vatanimiz istiqolining shonli o'ttiz ikki yillik to'yini zo'r shodu xurratlik bilan nishonlashga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda. Bu yilgi bayram tantanalari “Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!” degan bosh g'oya asosida nishonlanadi.

Joriy yil mamlakatimiz uchun katta o'zgarish va yangilanishlari yili bo'ldi. Jumladan, 30 aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovozi berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitusiyasi qabul qilindi va 9 iyul kuni xalqimiz faolligi bilan o'tgan Prezident saylovi yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitusiyaviy asosini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu o'zgarishlar jamiyatimizning siyosiy yetukligi va amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz to'liq qo'llab-quvvatlayotganidan dalolat beradi. Eng muhimi, bu yangilanishlar islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni “Inson qadri uchun” ezgu g'oyasi asosida xalqimizning erkin va farovon yashashini ta'minlash ishlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Globalbushuv jarayonining tezlashishi dunyoda barcha sohada raqobat muhitini kuchaytirayotgani hammaimizga yaxshi ma'lum. Bunday sharoitda zamonaviy bilim berishga asoslangan ta'limning mamlakatning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda kreativ va tanqidiy fikrlaydigan hamda yuqori salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislar talab ortadi. Bu esa besosiz ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq.

Shu jihatdan, so'nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan ta'limning barcha yo'nalishi, jumladan, maktabgacha va maktab ta'limi tizimi faoliyatini tubdan takomillashtirish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Hayot va mamot masalasi hisoblangan ta'lim-tarbiya sohasida eng qulay sharoitlarni yaratish ustuvor vazifaga aylandi.

Buning uchun maktablarning o'quv dasturlari, o'qitish uslublari, darsliklar mazmuni tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Maktablar qurish, murabbiylarning mashaqqatli mehnatini rag'batlantirish davom ettirilayapti.

Birgina bolalarimizni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi ilgari 27,7 foizdan 3 barobarga ortib, 70 foizga yetdi. Bog'chalar soni esa qariyb uch marta ko'payib, 14 mingdan oshdi.

“Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan g'oya asosida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Toshkent shahrida va hududlarimizda Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar soni ko'payib borayotir. Joriy yilning birinchi yarim yilligida ijtimoiy xarajatlarning asosiy qismini tashkil etgan ta'lim tizimi xarajatlarga Davlat byudjetidan 30,1 trln. so'm yoki o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 6,2 trln. so'm ko'p mablag' yo'naltirildi. Mahallalarda ochilayotgan kasb-hunariga o'qitish kurslarida minglab o'g'il-qizlarning mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlarini egallamoqda.

Albatta, ta'lim sohasiga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Boisi zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'lim taraqqiyotiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham shundan. Mamlakatning kelgusi ravnaqi ham aynan shu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan chambarchas bog'liq.

Muxtasar aytganda, oxirgi yillarda mamlakatimizda bo'layotgan o'zgarishlarning barchasi Vatanimiz mustaqilligi bilan bog'liq. Xalqimiz ham har yili ushbu bayramni yangi g'oyalari, yangi tashabbuslar bilan qarshi oladi. Yangi rejalar tuzib, faqat va faqat oldinga intilishga harakat qiladi. Zotan, bu jannatmonand yurtda barcha yaxshi yashashga haqli va butun sa'y-harakatlar ham shunga qaratilgan.

Tursunoy MURATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

TIBBIYOTDAGI ISLOHOTLAR

inson salomatligini ta'minlashga xizmat qilmoqda

So'nggi yillarda yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida tarixiy ishlar amalga oshirildi va bu boradagi sa'y-harakatlar bugungi kunda yangi bosqichda davom etayotir. Xususan, sog'liqni saqlash sohasi ham ulkan o'zgarishlarga yuz tutdi. Tarmoqqa e'tibor va munosabat tubdan o'zgardir.

Fikr

Ayniqsa, so'nggi yetti yilda mamlakatimizda inson salomatligini mustahkamlash, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, tibbiyot muassasalarining resurslar salohiyatini kuchaytirish, xalqimizning erkin va farovon yashashi, baxtli hayoti yo'lida izchil islohotlar amalga oshirildi.

Sir emaski, yaqin yillargacha yurtimizda bu yo'nalishdagi ahvol talab darajasida emassdi. Masalan, chekka hududlarda joylashgan qishloq vrachlik punktlari binolari eskirgan, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish uchun yetarli sharoitlar yo'q edi. Odamlar tibbiy xizmat sifati pastligidan oddiy kasallik tashxisi yoki muolajasi uchun uzoq yo'l bosib viloyat markazlariga, poytaxtga borishga majbur edi.

Yana bir hayotiy misol. Bundan bir necha yil oldin O'zbekistonda buyrak va jigar transplantatsiyasi amaliyotlari o'tkazilmasligi oqibatida ko'pchilik bemorlar xorijiy mamlakatlarda katta mablag' evaziga davolanishga majbur bo'lgan. Ular chet eillarda davolanishda turli mashaqqatlar, katta miqdordagi moliyaviy xarajatlarni, safar davomida til bilmaslik bilan bog'liq qiynchiliklarga duch kelardi.

Bugun-chi? Tizimda o'zgarishlar katta.



Sohani, uning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari natijasida keyingi yillarda bu borada qator ijobiy natijalarga erishilyapti. Buyrak va jigar transplantatsiyasi bilan bog'liq murakkab amaliyotlar O'zbekistonning o'zida o'tkazilmoqda. Masalan, 2017 yildan boshlab yurtimizda jigar, buyrak transplantatsiyasi, yurak sohasidagi nozik va murakkab operatsiyalar amalga oshirilib kelinayotir. Natijada bunday amaliyot o'tkazilgan bemorlar soni

15 barobar oshib, yiliga 350 tani tashkil qilmoqda.

2017 — 2023 yillar davomida mamlakatda 1100 buyrak va 70 dan ortiq jigar transplantatsiyalari uddalandi. Pediatriya transplantatsiyasi bo'yicha ham tajriba va ko'nikmalar oshirilib, turli yoshdagi bolalarga 50 ga yaqin buyrak ko'chirib o'tkazish muvaffaqiyatli bajarildi.

Keyingi yillarda yurtimizda tibbiyot yo'nalishida ilg'or ta'lim standartlari asosida yuqori bilimga ega mutaxassislar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratilayotir. Xususan, oliy tibbiy ta'lim muassasalari soni 11 taga yetdi. Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti va Qoraqalpog' tibbiyot instituti tashkil etildi.

Shuningdek, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo va Namangan viloyatlari oliy ta'lim muassasalarida 6 ta tibbiyot fakulteti ochildi. Buxoro shahrida esa zamonaviy qulayliklarga ega tibbiyot kampusi bunyod etildi. Mamlakat miqyosida 11 ta nodavlat tibbiyot instituti ish boshlagani sohadagi islohotlarning amaliy ifodasidir.

E'tiborlisi, oxirgi besh yil ichida bakalavriatda 3 ta yangi ta'lim yo'nalishi, magistraturada 10 ta va klinik ordinaturada 6 ta yangi mutaxassisliklar tashkil etildi. Natijada bakalavriat ta'lim yo'nalishlari

bo'yicha qabul parametrlari 2 barobar, magistraturada 86 foizga, klinik ordinaturada 2,6 barobar oshirildi.

Internatura joriy etilib, 19 ta yo'nalishda yiliga 500 nafar tor soha mutaxassisi tayyorlanmoqda. Qolaversa, o'quv rejalaridagi nomutaxassis fanlar ulushi 2 barobarga qisqartirilgan holda, xorijdan har yili 500 nafarga yaqin professor-o'qituvchilar o'quv jarayoniga jalb qilinmoqda.

Tibbiyot sohasidagi o'zgarishlar haqida gapirganda, tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy himoyalari soni oxirgi besh yil ichida 3 barobar oshganini ham ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, tibbiyot kollejlari negizida Abu Ali ibn Sino nomidagi 74 ta jamoat salomatligi texnikumi tashkil etildi. Rossiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya, Hindiston, Italiya, Xitoy, Polsha, Belarus, Ukraina kabi qator davlatlarning 22 ta universiteti bilan 12 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi, 10 ta magistratura va 8 ta klinik ordinatura mutaxassisliklari bo'yicha xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Bir necha yil oldin bunday natijalarni tasavvur qilish mumkinmi? Yo'q, albatta. Bugun sog'liqni saqlash sohasidagi o'zgarishlarni odamlar o'z hayotida his etmoqda. Ularning barchasi mustaqillik sharoifati hamda Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasidir.

Zuhra IBRAGIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari.



ISTIQLOL KURASHCHILARI



Jadidchilik harakati qanday yuzaga keldi?

Xo'sh, Vatanimiz tarixining shonli sahifalaridan biri bo'lgan jadidchilik harakati qanday yuzaga keldi? O'tgan asrning 60 yillari miyanasida o'rganila boshlangan jadidchilik harakati va jadid adabiyoti cho'qqiga shu kunga qadar ko'plab kitob hamda maqolalar yozildi, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, talaygina ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Jadidchilik harakati va jadid adabiyoti cho'qqiga ko'tarilgan XX asrning dastlabki choragi Turkiston xalqlari tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Mazkur harakatning ishtirokchilari va tarixchilaridan biri Fayzulla Xo'jayev "Buxoro inqilobi tarixi va O'rta Osiyodagi milliy chegaralanishga doir" (1926) kitobida bu harakatning boshlanishini "Tarjimon" va "Vaqt" gazetalari, shuningdek, "Mulla Nasriddin" jurnali ta'sirida yangi usul maktablarining ochilishi va ta'lim tizimining isloh etilishi bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, Turkiston va Buxoro jadidchiligi XX asr boshlarida qariyb bir vaqtda va bir xil maqsad asosida paydo bo'lgan. Shu bilan birga, Fayzulla Xo'jayev ular o'rtasidagi muhim farqni ham yashirmagan. Uning tushuntirishicha, Buxoroda har qanday yangilik qattiq ta'qib ostiga olinganligi sababli Buxoro jadidchiligi, Turkiston jadidchiligidan farqli o'laroq, tashkilot shaklida maydonga kelgan.

Sadriddin Ayniyaning "Qisqacha tarjimai holi"da (1940) mazkur tashkilot haqida shunday so'zlarni o'qiydiz: "Maktab va madrasalarni isloh qilish uchun yashirin bir jamiyat tuzildi. Bu jamiyatga "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") deb nom qo'ydi, shu jamiyatning yordami bilan maktablar tashkil etildi. Bu maktablarda savodini chiqarib olgan bolalarni jamiyat Orenburg, Qozon, Ufa, Qrim va Turkiyaga o'qishga yubora boshladi. Badavlat oila bolalari o'z hisobiga, kambag'al bolalar esa jamiyat hisobiga o'qishga yuborilar edi... Amirning ta'qibidan qochib qutulishga majbur bo'lgan yoshlar Rusiyaga yoki Turkiyaga borib o'qishga kirar edilar".

S. Ayniyaning keyingi so'zlari jadidchilik harakati paydo bo'lgan amirlikdagi og'ir sharoitni va ayni paytda Buxoro jadidlarining shunday sharoitda olib borgan qahramonona ishlarini tushunish va hatto his qilishimizga yordam beradi: "O'rta asrchilik qoida-tartiblaridan iborat bo'lgan amirlik va Buxoroda o'rta asrchasiga ish yuritgan imperator amaldorlari maorif va ilm masalalari bilan shug'ullanuvchi bu jamiyatga bir revolyusion tashkilot, deb qarar va jamiyat a'zolarini "davlatga qarshi suiqaasd qiluvchilar", deb hisoblar edilar".

S. Ayniy tilga olgan jamiyat 1910 yilda tashkil etilgan. Shubhasiz, Buxoroda jadidchilik harakatining tug'ilishini faqat mazkur tashkilot va shu sana bilan bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Bu tashkilotdan avval Buxoroda yangi usul maktablari ochilgan, hatto mazkur ilm dargohlari uchun o'quv qo'llanmalarini nashr etish maqsadida 1908 yilda "Buxoroi sharif" shirkati tuzilgan. Lekin shu narsa haqiqatki, "jadid" so'zi ham, dastlabki jadidlar ham XX asrning boshlarida paydo bo'lgan.



Naim KARIMOV, akademik.

Abdulla Avloniy 1900 yili otasi vafot etganidan so'ng o'gay onasi bilan ukasini boqish zarurati bois madrasani tashlashga majbur bo'lgan. U "Tarjimai holi"da hayotining shu mashaqqatli kezarini eslab, biz uchun muhim bir gapni aytgan: "Shul choqlarda, — deb yozgan u, — o'zim mehnat ichida yashaganlig'imdan boylarga va mullalarga qarshi she'rilar yoza boshladim". Nega undagi norozilik, kimlagadir nisbatan nafrat ruhi she'r shaklida o'z ifodasini topdi? Bunday savollarga javob berish qiyin emas. O'sha vaqtda xalqning ijtimoiy turmushida hukm surgan adolatsizlik — kimningdir yaxshi, kimningdir qiyin kun kechirayotgani yosh Avloniy o'ylashga majbur etgan. Bu ijtimoiy adolatsizlik unda xalqning yaxshi yashayotgan kichik qatlami nisbatan nafrat va g'azab uyg'otgan. Va bu g'azab shu adolatsizlik bilan murosada yashayotganlarga nisbatan ham tarqalgan.

yangilik janjali boshlandi. Gazet o'quvchilarni mullalar "jadid", deb atar edilar. 1904 yildan jadidlar to'dasida ishlay boshladim. "Jadid maktabi" ochib, o'qituvchilik qila boshladim..."

Agar F. Xo'jayev va S. Ayniy Buxoroda jadidchilik harakatining boshlanishini 1905 yil va undan keyingi voqealar — "Tarjimon", "Vaqt" gazetalarning Turkistonda tarqalishi, yangi usul maktablarining ochilishi va yashirin tashkilotning tuzilishi bilan bog'lagan bo'lsa, Avloniy ham jadidchilikka qariyb shunday yo'l bilan kirib kelganini e'tirof etgan.

Shunday qilib, jadidchilikning paydo bo'lish vaqti taraqqiyparvar gazetalarning Turkistonda tarqala va "usuli savtiya" maktablarining tashkil etila boshlashi bilan bog'liq.

"Usuli savtiya"

Ma'lumki, 1883 yildan e'tiboran chiqqa boshlagan "Tarjimon" gazetasi 1885 yildayoq Turkistonda 200 nusxada tarqalgan. Ammo bu fakt gazetaning hali Turkistonda ijtimoiy hayotga ta'sir ko'rsata boshlaganini mutlaqo anglatmaydi. Buni Ismoil Gasprinskiyning o'zi ham yaxshi bilgan. Uning 1893 yili maslakdoshi Majid G'anzoda bilan Toshkentga kelishidan va shu yili Buxoroda "usuli savtiya" maktabini ochishdan ko'zlagan maqsadi ham o'z g'oyalari Turkistonda hayotga tatbiq etish edi.

Shu yili Toshkent, Samarqand va Qo'qon shaharlarida ham "usuli jadid" maktablari ochila boshlandi. Ammo bu maktablarning hammasi, bir tomondan, mustamlakachilar, ikkinchi tomondan, mutaas-

di. Shuning uchun ham Avloniy: "1904 yilda rus — yapon urushi chiqib, bizning ham ko'zimiz ochildi. 1905 yildagi Rusiyada boshlangan inqilob to'liqini bizga ham zo'r ta'sir qildi", deb yozgan.

XX asr avvalida boshlangan jadidchilik harakatiga Mahmudxo'ja Behbudiy bilan Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qilishgan. Xullas, jadid adabiyotining tarixchilaridan biri, professor Begali Qosimov "Jadidchilik" degan maqolasida:

"Jadidchilik harakat sifatida 1905 yil arafalarida maydonga kelgan va muayyan tashkiliy xarakterga ega bo'lgan (ta'kid bizniki — N.K.)" deb xulosa chiqarganida mutlaqo haq edi.

Maqsad — mustamlakachilik asoratidan qutulish

Bir zamonlar jahonning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Amir Temur saltanati keyingi asrlarda parchalanishda davom etdi. XIX asrning 50 — 60 yillariga kelib uch xonlikka ajralgan, har tomonlama zaiflashgan Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan osongina bosib olindi. Xalqning shusiz ham og'ir bo'lgan iqtisodiy-maishiy ahvoli yanada ayanchlashdi.

Mustamlakachilik siyosati negizida, birinchidan, o'lkadagi boylarini tashib ketish, ikkinchidan, mahalliy hokimiyat va mahalliy aholining haq-huquqlarini cheklash-chegaralash, uchinchidan, aholini ruslashtirish, to'rtinchidan, mahalliy aholi o'rtasidagi obro'-e'tiborga ega bo'lgan kishilarni sotib olish, to'rtinchidan, aholi ijtimoiy ongining o'sishiga ozuqa beradigan madaniyat va ma'rifat sohalarini qattiq nazorat qilish masalalari yotadi. Rossiyaning Markaziy Osiyoda olib borgan shu yo'nalishdagi siyosati oqibatida xalqning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti mushkul bir ahvolda tushdi. XIX asrning 70 — 90-yillarida ko'tarilgan xalq o'zg'olonlari biror natija bermadi; aksincha, qo'zg'olonchilar shafqatsiz ravishda jazolandi.

Shu davrdagi xalq hayotini o'z ko'zi bilan ko'rgan Furqat rus fani, texnikasi va qurolini sharafladi. Muqimiy va boshqalar xalqning og'ir ahvolini tasvirlashga alohida e'tibor berdi. Ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan she'rilar paydo bo'ldi. Ayni paytda ma'rifatparvar shoirlar orasida chorizmga sidqididan xizmat qilgan, hatto himoyasiga bel bog'lagan kishilar ham topildi.

Faqat 1905 yil voqealari arafasida tarix sahnasiga chiqqan, keyin Rossiya, Turkiya va Eronda ingilobiy harakatlardan ma'lum xulosaga kelgan jadidlarinda aniq dastur asosida Turkistonda hukm surgan tartibni o'zgartirish ishiga bel bog'lab kirishdi. Ular birinchi bo'lib ta'lim tizimini isloh qildi, milliy matbuot va teatr-ga, yangi ijtimoiy mazmun bilan yo'g'rilgan adabiyotga asos sol-

Shuning uchun ham, aytish mumkinki, bugungi mustaqillik va obod hayotga behisob yo'qotishlar, misli ko'rilgan talafotlar evaziga erishildi. Ushbu tarix haqiqatlari musaffo osmon ostida, beg'ubor tonglarni ko'rib ulg'ayayotgan bugungi avlodni shukronalik tuyg'usi bilan bog'laydi, istiqloqdek ulug' ne'matni qadrlash, ko'z qorachig'idek asrab-avaylash va uning barqarorligini ta'minlash ruhida yashashga undaydi.

di. Ular yaratgan adabiyot so'z san'atida chin ma'noda yangi davr boshlanganini ko'rsatardi.

Xullas, jadidchilik harakati va jadid adabiyoti tarixiy davr taqozosi hamda tarixiy-ijtimoiy vaziyatni, xalq hayoti va taqdirini o'zgartirish, o'zlikni anglash, mustamlakachilik asoratidan qutulish maqsadi bilan maydonga keldi.

Faol va izchil harakat

Professor Begali Qosimov "Jadidchilik" nomli maqolasida mazkur harakatning quydagi muhim belgilarini qayd etadi:

birinchidan, jadidchilik harakat sifatida 1905 yil arafalarida maydonga kelgan va muayyan tashkiliy xarakterga ega bo'lgan; ikkinchidan, xarakter yo'nalishiga ko'ra, antifeodal, antikolonial bo'lib, Turkistondagi keng ommaning, birinchi navbatda, shakllanib kelayotgan shirkaziyon intilish va manfaatlarini ifoda etdi (Olimning bu fikri sovet mafkurasi ta'sirida aytilgan — N.K.);

uchinchidan, Turkistonni savodli va ma'rifatli, to'q va farovon, ozod va obod Vatanga aylantirish, birinchi navbatda, mustaqillikka erishish, mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo'lish jadidchilik harakatining asosiy maqsad-vazifasini tashkil qilar edi;

to'rtinchidan, jadidchilik, tarkibiga ko'ra, xilma-xil ijtimoiy guruhlarni o'zida jalb etgan edi. Shu tufayli Turkistonning bo'lajak idora usuli, umuman, ijtimoiy qurilishi, yer va mulk munosabatlari, xotin-qizlar ozodligi masalalarida yakdillik yo'q va bo'lishi mumkin emas edi.

Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda jadidlarning 1917 yil fevral inqilobidan keyin siyosiy tashkilotlar tuzish, Turkiston Muxtoriyati hukumatini barpo etish, muxtoriyat tugatilgandan keyin esa "Milliy ittihad" tashkilotini kengaytirish va kuchaytirish orqali mustaqillik yo'lida faol va izchil kurash olib borganlarini e'tirof etish lozim.

O'tgan asrda istiqloq degan, yurtimizni yorug' manzillarga olib chiqishni niyat qilgan ko'plab o'tyurak o'g'lonlarimiz bemisl zulmu sitamlarga giriftor bo'ldi, to'pga tutildi, o'qqa uchdi, sovuq o'rmonzorlarga surgun qilindi. Bunday qahramonlarning aksariyati jadidlar edi. Fikri uyg'oq, ma'rifatparvar, vatanparvar bu insonlar xalqimizni istibdod kishanlaridan ozod etishga, qullik iskanjasidan qutqarishga intildi. Bu yo'lida odamlarning ongu dunyoqarashini boyitish, bilim va salohiyatini yuksaltirish, ko'ngil ko'zini ochish ularning asosiy maqsadi bo'ldi. Biroq ular o'ta shafqatsiz, qonxo'r tuzumda yashayotgan edilar. Mustabid tuzum o'ylab-netib o'tirmay, millatning guli bo'lgan, qaramlikdan qutulmoqni istagan har qanday insonni mahv etib keldi. Uning oilasi, yaqinlari, do'stlari ham ta'qibga olindi.

YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

TEGIRMONBOSHI — FAYZLI VA OBOD MAHALLA

Mustaqilligimizning 32 yilligi munosabati bilan "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" tamoyillari asosida yangicha qiyofa kasb etgan O'zyovon tumanidagi Tegirmonboshi mahallasida tantanali bayram shodiyonalari bo'lib o'tdi.

Ta'kidlanganidek, o'tgan raisi Muhammadjon Majonov. — Shuningdek, 2,5 mlrd. so'mdan ortiq respublika va viloyat byudjeti 1,9 km. oqova hamda 2,7 ming metrlik ichimlik suvi



mablag'lari sarflanib, hudud infratuzilmasi yaxshilandi. Mahalladagi 335 ta xonadonda xatlov ishlari olib borilib, muammolarga yechim belgilandi. Ehtiyojmand oilalarga moddiy va ma'naviy ko'mak berildi.

Yangilanish va o'zgarishlar jarayonida mahalla binosiga qo'shimcha 3 ta xizmat xonasi qurib bitkazildi, — deydi "Tegirmonboshi" MFY tarmoqlari tortish, bitta oqova suv qudug'i qurish bo'yicha ishlar olib borildi. Elektr energiyasi ta'minoti yaxshilandi, 4,5 km. ichki yo'llarga asfalt yotqizildi. Piyodalar yo'laklari tashkil etildi.

Aholini ish bilan ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida yangi tikuvchilik syexi ishga tushirildi. Natijada mahallaning 20 nafar ayoli doimiy ish o'rni bilan ta'minlandi.

O'QUVCHILARGA BAYRAM TUHFASI

Andijon viloyatida 7 640 nafar ijtimoiy ko'makka muhtoj oila farzandlari bepul maktab kiyimlari bilan ta'minlandi.



E'tibor va g'amxo'rlik uchun rahmat.

Shuningdek, Andijon shahrining 15 ta, qolaversa, tuman markazlarida maktab savdo yarmarkalari tashkil etilib, ularda o'quvchilar uchun zarur bo'lgan anjomlar — kiyim-kechak hamda o'quv qurollari ta'zorga nisbatan arzon narxda sotuvga chiqarilmoqda.

E'tiborlisi, aholiga qulaylik yaratish maqsadida yarmarkalar ko'p qavatli uylar oldida uyushtirilgan. Bu o'ta-onalarga ham naqdini, ham vaqtini tejash imkonini beradi.

CHO'PONOTADA KO'RKAM BOG'LAR BARPO ETILADI

Samarqand shahrida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekologik muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni asrash, yashil hududlarni kengaytirish borasida keng ko'lami sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Loyihaga ko'ra "Yashil bog", "Yashil jamoat parki" kabi yangi tabiiy hordiq maskanlari barpo etilyapti. Ayni jarayonda ko'hna kentda daraxtzor, butazor, gulzor va mayasozorni ko'paytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shahardagi yashil maskanlar maydonini kengaytirish, bog', xiyobon va ko'chalardagi kasallangan, qurib qolgan daraxtlar o'rni-ga yangisini o'tqazish orqali tabiiy mo'tadillikni ta'minlash choralari ko'riyapti, — deydi Samarqand shahar hokimi o'rinbosari Feruz Najmiddinov. — Bu borada shaharning sharqiy chekkasida joylashgan.

Cho'ponota tepaligidagi

katta maydonda manzarali va ignabargli daraxt ko'chatlari o'tqazildi, yashil hudud tashkil etildi.

Cho'ponota tepaligiga tutash hududda joriy yilning kuz faslida umumiy maydoni 4,8 gektar bo'lgan "Yashil bog" yaratishga kirishildi. Ezu tashabbus doirasida kelgusi yili yana 7,8 gektar maydonda yangi bog' barpo etish ko'zda tutilgan.

Ayni jarayonda bog'dagi ko'chalarga agrotexnik ishlov berish, sug'orish, oziqlantirish, kasalliklardan saqlash uchun o'rmon xo'jaligi va tegishli tashkilotlar ishtirokida maxsus xizmat faoliyati yo'lga qo'yilishi rejalashtirilmoqda.

«Xalq so'zi».

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-rakam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 841.32 145 nusxadabosilgan. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulidabosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasini, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi masul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'za yakuni — 23.00 Topshirildi — 00.20 1 2 3 4 5 6

ISSN 2010-0768